



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI**

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2021-yil
yanvar-sentabr**

Nukus – 2021

SO‘Z BOSHI

Qoraqalpog‘iston Respublikasining statistik axborotnomasi – Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tormoqlari hamda shahar va tumanlar holatini kompleks tavsiflovchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Uchbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Evropa ham jamiyatning Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagich (IFUT–2) buyicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘ –kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarich sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, suv ta’minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘silgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya’ni, YaHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar keng yoritilgan.

Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	—	yalpi hududiy mahsulot	l.	—	litr
%.	—	foiz	0,0	—	katta bo'Imagan miqdor
mlrd.	—	milliard	m.	—	marta
mln.	—	million	—	—	ko'rsatkichning yo'qligi
mln.AQSh doll.	—	million AQSh dollari	ga.	—	hektar
kv.	—	kvadrat	tn.	—	tonna
km.	—	kilometr	¹⁾ , ²⁾ , ³⁾	—	izohning mavjudligi
m.	—	metr			

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	6
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH	7-12
II. SANOAT	13-26
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	27-46
IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	47-66
V. XIZMATLAR	67-82
VI. TRANSPORT	83-92
VII. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI	93-99
VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	100-106
IX. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)	107-116
X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	117-123
XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI	124-140
XII. O'RTACHA OYLIK ISH HAQI	141-148
XIII. DEMOGRAFIYA	149-158

**Asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar
yanvar-sentabr oylarida**

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>2020-yil yanvar-sentabriga nisbatan, foiz hisobida</i>
	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>	
Yalpi hududiy mahsulot	14 798,4	18 122,2	107,4
Sanoat mahsuloti	9 737,6	11 734,0	105,8
Iste’mol tovarlari	1 867,8	1 965,5	105,2
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	6 226,8	7 505,1	105,9
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	5 053,7	5 543,8	100,6
Qurilish ishlari	2 913,2	3 439,8	109,8
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	527,1	556,3	105,5
Yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi-km)	2698,3	2755,3	102,1
Chakana tovar aylanmasi	4 747,3	5 591,8	106,3
Xizmatlar, jami	4 574,7	5 925,8	121,1
Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh doll.)	380,9	468,2	122,9
Eksport	251,0	297,7	118,6
Import	129,9	170,5	131,3
Saldo (+;-)	121,1	127,2	x

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 18 122,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020 yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 107,4 foizga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021 yil yanvar-sentabrdagi narxlarga nisbatan 114,0 foizni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Qoraqalpog‘iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,5 foizga yetdi.

Yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	<i>mlrd.so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan foizda</i>
	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	14 798,4	18 122,2	107,4
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 878,8	16 684,6	107,3
Mahsulotlarga sof soliqlar	919,6	1 437,6	108,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13 878,8	16 684,6	107,3
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 583,0	4 330,1	105,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 046,6	6 033,4	106,8
sanoat	3 770,2	4 525,0	105,8
qurilish	1 276,4	1 508,4	109,8
xizmatlar	5 249,2	6 321,1	108,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	728,1	872,2	107,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	836,0	1 041,2	117,4
boshqa xizmatlar	3 685,1	4 407,7	107,2

Hisobot davrida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmi 9 381,9 ming so'mni tashkil etib va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,0 foizni tashkil etdi.



Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari

2020 yil

7 758,4

99,3

2021 yil


9 381,9

106,0



Aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM hajmi
(ming. so'm)

Aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM ning
mutloq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga
nisbatan)



Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 92,1 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 7,9 foizini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 26,0 % ni, sanoat tarmog'i 27,1 % ni, qurilish 9,0 % ni va xizmatlar tarmog'i 37,9 % ni tashkil qildi.

**Yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi yalpi hududiy mahsulotning
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi,
jamiga nisbatan foiz hisobida**


	<i>2020 yil</i>	<i>2021 yil</i>
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
 Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	93,8	92,1
 Mahsulotlarga sof soliqlar	6,2	7,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
 Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	25,8	26,0
 Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	36,4	36,1
 sanoat	27,2	27,1
 qurilish	9,2	9,0
xizmatlar	37,8	37,9
 savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5,2	5,2
 tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	6,0	6,2
 boshqa xizmatlar	26,6	26,5

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**




2020 yil yanvar-sentabr



2021 yil yanvar-sentabr




YAHMning o‘sishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlardagi ijobjiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 105,8 foizni (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 26,0 %), sanoatda 105,8 foizni (27,1 %), qurilishda 109,8 foizni (9,0 %) va xizmatlar sohasida 108,9 % ni (37,9 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 107,4 foizni (5,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,4 foizni (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,2 foizni (26,5 %) tashkil etdi.



2021-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyator indeksi 2020-yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 114,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 114,3 % va sanoatda – 113,4 % qayd etildi.

 **Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



 **Yanvar-sentabr oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi
(jamiga nisbatan % da)**




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagи ulushi 56,1 % ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-sentabrida – 55,9 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi pasayishi yirik korxonalar ulushining kamayishi o'sishi bilan izohlanadi.

II. SANOAT

Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2021 yil yanvar-sentabr)



2021 yilning yanvar-sentabrida 11 734,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 85,3 % ni tashkil etdi.

Statistik hisob-kitoblar bo'yicha joriy yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 1 666,4 mlrd. so'm miqdorida (jami sanoat mahsulotlari hajmining 14,2 foizi)ga baholandi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilga nisbatan 119,7 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirdorlar va uy xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 806,6 mlrd. so'm miqdorida (6,9 foiz) hisob-kitob qilindi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 10 010,6 mlrd. so'm bo'lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 85,3 foizni tashkil etdi.


Shuningdek, hisobot davrida jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash faoliyat turi bo'yicha 1 584,7 mlrd. so'm (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 13,5 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish faoliyat turlari bo'yicha 72,4 mlrd. so'm (0,6 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash faoliyat turi bo'yicha 66,3 mlrd. so'm (0,6 %) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

Sanoat ishlab chiqarishning o‘sishiga elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari ham munosib hissa qo‘shti, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 13,5 foizni tashkil etdi.

**Yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi
va o‘sish sur’ati**



**2021 yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat mahsulotini ishlab chiqarish**

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>fizik hajm indeksi, %</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>		<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi	9660,0	11734,0	105,8	100,0	100,0
<i>iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>					
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	81,6	66,3	7,2	0,8	0,6
<i>ulardan:</i>					
Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari	54,1	62,6	44,3	0,5	0,53
Yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish	27,5	3,7	14,0	0,3	0,03
Qayta ishlash sanoati	8307,3	10010,6	111,3	86,0	85,3
<i>undan:</i>					
Oziq- ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	1343,9	1514,8	104,5	13,9	12,9
To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	1021,8	1400,2	124,9	10,6	11,9
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish	110,6	114,4	106,0	1,1	1,0
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,7	3,7	268,9	0,02	0,03

davomi


	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>fizik hajm indeksi, %</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>		<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	5304,1	6373,9	112,2	54,9	54,3
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish	0,1	6,8	295,0	0,001	0,1
Asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	25,4	27,9	133,8	0,3	0,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	347,2	307,1	94,0	3,6	2,6
Metallurgiya sanoati	3,0	3,9	169,3	0,03	0,03
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	23,9	42,2	139,0	0,2	0,4
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	39,0	101,3	91,5	0,4	0,9
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	47,9	62,5	75,1	0,5	0,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	2,9	1,0	25,2	0,03	0,01
Mashina va uskunalar ta’mirlash va o’rnatish	6,2	12,7	361,6	0,1	0,1
Avtotransport vositalari, boshqa transport uskunalarini, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	29,6	38,2	116,1	0,3	0,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’mirlash va havoni konditsiyalash	1217,6	1584,7	129,7	12,6	13,5
Suv bilan ta’mirlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	53,5	72,4	86,5	0,6	0,6

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,3 mld. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizini tashkil etdi.


Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ohaktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35,3 foizga, gaz kondensati 18,3 foizga va tabiiy gaz 26,1 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

2020 yil yanvar-sentabr



2021 yil yanvar-sentabr



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)

o'lchov birligi	yanvar-sentabr oylarida		2020 yilga nisbatan, % hisobida
	2020 y.	2021 y.	

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tabiiy gaz ishlab chiqarish	mln.m.kub	2033,9	1503,1	73,9
Ohak tosh	ming tn.	186,1	120,4	64,7
Chaqiq tosh (sheben)	ming tn.	-	-	-

	<i>o‘lchov birligi</i>	<i>yanvar-sentabr oylarida</i>		<i>2020 yilga nisbatan %, hisobida</i>
		<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>	
Qayta ishlash sanoati				
Aroq mahsulotlari	<i>ming l. 100% spirit</i>	2303,2	2861,4	124,2
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	69,9	66,7	95,4
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar	<i>tn.</i>	191,6	38,2	19,9
Birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni, og‘irligi 600 g. (buxanka)	<i>tn</i>	436,8	187,9	43,0
Guruch mahsulotlari	<i>tn</i>	5831,9	1517,8	26,0
Tozalangan paxta yog‘i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	<i>tn.</i>	7999,5	4564,7	57,1
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor omuxta yem mahsulotlari	<i>ming tn.</i>	34,6	34,5	99,6
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	31,5	24,1	76,3
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	50,9	37,3	73,3
Paxta tiviti (lint)	<i>tn.</i>	2342,0	2180,4	93,1
Asosiy noorganik kimyoviy moddalar (dinatriy karbonati)	<i>ming tn.</i>	138,0	130,2	94,3
Polietilen	<i>ming tn.</i>	264,0	226,8	85,9
Polipropilen	<i>ming tn.</i>	73,5	64,1	87,2
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash				
Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	3128,8	3674,5	117,4
Bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	21,2	39,9	187,8

	o'Ichov birligi	yanvar-sentabr oylarida		2020 yilga nisbatan, % hisobida	davomi
		2020 y.	2021 y.		

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari	<i>mln. so'm</i>	31248,5	47443,0	151,8
---	------------------	---------	---------	-------

Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	<i>mln. so'm</i>	4536,9	5858,9	129,1
--	------------------	--------	--------	-------

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 010,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 85,3 % tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 foizni, o'rta-yuqori texnologiyali 63,7 foizni, o'rta-quyi texnologiyali 4,3 foiz va quyi texnologiyali 30,7 foizni tashkil etdi.

**2021 yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



O‘z navbatida, ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan aroq 24,2 foizga oshganligini va guruch 74,0 foizga, yumshoq bug‘doy uni 4,6 foizga, bug‘doy noni 57,0 foizga, makaron mahsulotini ishlab chiqarish o‘tgan yilga nisbatan 80,1 foizga, porlandtsement 9,3 foizga pasayganligini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1584,7 mlrd. so‘mmi (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,5 foizni) tashkil etdi.

Suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 72,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 foizi) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash xizmatlarining 51,8 foizga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlarning 29,1 foizga oshganligi kuzatildi.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 1965,5 mlrd. so‘mlik iste’mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020 yilning yanvar- sentabriga nisbatan 105,2 foizni tashkil etdi. Jumladan, 1015,9 mlrd.so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari (99,7 foiz), 117,8 mlrd.so‘mlik vino-aroq mahsulotlari (126,5 foiz) va 831,8 mlrd. so‘mlik nooziq-ovqat mollari (2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 110,1 foiz) ishlab chiqarildi.


Yanvar-sentabr oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>jamiga nisbatan ulushi, foiz hisobida</i>	
	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>	<i>2020 y.</i>	<i>2021 y.</i>
Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish	1747,9	1965,5	100,0	100,0


shu jumladan:

oziq-ovqat tovarlari	1096,5	1133,7	62,7	57,7
nooziq-ovqat tovarlari	651,4	831,8	37,3	42,3

**2021 yilning yanvar-sentabr oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



**Yirik va kichik biznes subyektlari tomonidan iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan foiz hisobida**




Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (jami ishlab chiqarish hajmining 55,4%), Taxiatush (14,1%), Qo'ng'iroq (4,4 %), Amudaryo (3,2%), Beruniy (2,7 %), To'rtko'l (2,6 %) Ellikqal'a (2,3%), tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Nukus shahri (jami iste'mol tovarlari hajmining 20,7 %), Taxiatush (12,4 %) To'rtko'l (8,6 %), Ellikqal'a (6,9%), Amudaryo (6,6%), Shumanay (6,5 %), Beruniy va Qo'ng'iroq (6,4 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi (respublika bo'yicha jamiga nisbatan foiz hisobida)




2021 yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

	<i>sanoat mahsulotlari, mlrd. so'm</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>	<i>iste'mol tovarlari, mlrd. so'm</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, %</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11734,0	100,0	1965,5	100,0
Nukus sh.	6501,9	55,4	407,4	20,7
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	377,8	3,2	130,6	6,6
Beruniy	312,7	2,7	126,3	6,4
Bo'zatov	86,0	0,7	10,0	0,5
Qonliko'l	236,1	2,0	24,3	1,2
Qorao'zak	198,1	1,7	38,7	2,0
Kegeyli	177,4	1,5	50,1	2,6
Qo'ng'iroq	515,7	4,4	126,3	6,4
Mo'ynoq	144,9	1,2	28,1	1,4
Nukus	215,8	1,9	42,1	2,2
Taxiatosh	1651,2	14,1	244,4	12,4
Taxtako'pir	148,2	1,3	87,4	4,5
To'rtko'l	307,7	2,6	169,6	8,6
Xo'jayli	262,1	2,2	114,2	5,8
Chimboy	192,2	1,6	103,2	5,3
Shumanay	140,3	1,2	127,3	6,5
Ellikqal'a	265,9	2,3	135,5	6,9

**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va
iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish**

	<i>Ishlab chiqarish hajmi, aholi jon boshiga, ming so'm</i>	
	<i>sanoat mahsulotlari</i>	<i>iste'mol tovarları</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6074,8	1017,5
Nukus sh.	19965,8	1251,1
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1865,2	644,7
Beruniy	1599,7	646,2
Bo'zatov	3949,9	458,8
Qonliko'l	4548,3	468,2
Qorao'zak	3714,7	725,1
Kegeyli	2420,1	682,9
Qo'ng'irot	3909,4	957,4
Mo'ynoq	4451,2	864,9
Nukus	4203,5	820,5
Taxiatosh	22050,0	3263,1
Taxtako'pir	3662,1	2159,0
To'rtko'l	1405,8	775,2
Xo'jayli	2102,9	916,2
Chimboy	1694,3	910,1
Shumanay	2475,8	2245,8
Ellikqal'a	1633,1	831,8

**2021 yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan
sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmlari,
ming so‘mda**





2021 yilning yanvar-sentabr oylarida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish

Tarmoqlar aro sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 1030,1 mld. so‘mlik mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hajmlarining o‘sishi bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

Mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

	<i>2020 yil yanvar-sentabr</i>	<i>2021 yil yanvar-sentabr</i>
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	17	47
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	15	39
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mld.so ‘m</i>	81,6	1030,1
Eksport qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSh doll.</i>	0,7	10,2
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, <i>birlik</i>	322	197

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6966,9 mld. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Qo‘shma korxonalarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 59,4 foizni tashkil etdi.


III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi 7 505,1 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 105,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 7 039,3 mlrd. so'mni (106,1 %), o'rmon xo'jaligi 289,3 mlrd. so'mni (101,1 %), baliqchilik xo'jaligi 176,4 mlrd. so'mni (105,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasining ulushi 3,4 % ni tashkil qildi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm



2021 yilning yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Amudaryo (1408,7 mlrd. so'm) va To'rtko'l (889,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mo'ynoq (98,9 mlrd. so'm) tumani va Nukus shahar (37,6 mlrd. so'm)larni keltirib o'tish mumkin.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining
xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**

Hosil yig'imi. 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 166,0 ming tonna don ekinlari ishlab chiqarildi.

Bundan tashqari barcha toifadagi xo'jaliklarda 55,2 ming tonna kartoshka, (2020 yilga nisbatan 5,2 foizga ko'p), 199,4 ming tonna sabzavot (2,9 foizga ko'p) yig'ib olindi, 123,4 ming tonna poliz ekinlari (3,7 foizga ko'p), 37,3 ming tonna meva va rezavorlar (2,8 foizga ko'p) va 5,5 ming tonna uzum (4,2 foizga ko'p) yetishtirildi.

2021 yilning yanvar-sentabrida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Fermer xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	tonna	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	tonna	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Jami don	124 995	86,3	34 576	100,6	6 454	106,7
Kartoshka	13 062	106,1	41 837	104,7	321	150,7
Sabzavotlar	54 075	104,2	140 603	102,1	4 714	114,1
Poliz	59 365	103,7	63 097	103,7	962	103,7
Mevalar va rezavorlar	10 214	103,9	23 725	100,8	3 395	114,5
Uzum	619	103,0	4 493	104,0	359	108,8




Dehqonchilik


2021 yilning yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3061,8 mlrd. soʻmni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 109,2 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 44,1 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


*Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xoʼjalik toifalari boʻyicha
taqsimlanishi, % da*



Hajmi, ming tonna



Oʼsish surʼati, % da



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi boʻyicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna




Sabzavotlar


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati, % da




*Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, %
da*



2021 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 199,4 ming tonna sabzavotlar (2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 70,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming tonna.



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da



O'sish sur'ati, % da




2021 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 55,2 ming tonna kartoshka (2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 5,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 75,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da



*Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da*




● Fermer
xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar


2021 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 123,4 ming tonna poliz (2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiylajmidan 51,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna




Mevalar va rezavorlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da





● Fermer
xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna





2021 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 5471 tonna uzum (2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 82,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.






Chorvachilik

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 3 886,6 mlrd. soʻmni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʼjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 55,9 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʼrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʼldirishga imkon yaratdi.

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xoʼjaliklar tomonidan tirik vaznda 77,9 ming tonna goʼsht (2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,9 % ga koʼp), 241,3 ming tonna sut (3,9 % ga koʼp), 248,3 mln. dona tuxum (4,5 % ga koʼp) va 7 299 tonna baliq (0,9 % ga koʼp) ovlandi.






Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming tonna.



O'sish sur'ati, % da



Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 241,3 ming tonna sut (2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 3,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiylajmidan 91,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qaraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ishlab chiqarilgan sut yetishtirish hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln.dona



O'sish sur'ati, % da





*Ishlab chiqarilgan
mahsulotlarning xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi, % da*



2021 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 248,3 mln.dona tuxum (2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 4,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahsil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiylajmidan 84,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha olingan tuxum yetishtirish hajmi, ming dona






Baliq

O'sish sur'ati, % da




Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2021 yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 7299 tonna (2020 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 0,9 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 52,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

● Fermer xo'jaliklari ● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari ● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna




Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2021 yilning 1 oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligi sonidan 11,3 % i fermer xo'jaliklariga, 86,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiyligi sonidan 23,9 % i fermer xo'jaliklariga, 73,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 2,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiyligi sonidan 6,6 % i fermer xo'jaliklariga, 87,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi





2021 yilning 1 oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiyl soni 1163,7 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2020 yilning 1 oktabriga nisbatan 46,7 ming boshga (4,2 %) ko'paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 93,8 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

● Fermer xo'jaliklari ● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari ● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni, bosh






2021 yilning 1 oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 340,4 ming boshga yetdi.
- sigirlarning bosh soni 2020 yilning 1 oktabriga nisbatan 12,6 ming boshga (3,8 %) ko'paydi.
- sigirlar bosh sonining 92,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.




Soni, ming bosh




Qo'y va eshkilar

O'sish sur'ati, % da



Bosh sonining xo'jalik toifalarini bo'yicha taqsimlanishi





● Fermer
xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga
oshiruvchisi tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha qo'y va eshkilarining bosh soni, bosh






Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha otlarning bosh soni, bosh




Parrandalar


Soni, ming bosh



*Bosh sonining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi*



O'sish sur'ati, % da



2021 yilning 1 oktabr holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- parrandalarning umumiy soni 4 752,6 ming boshga yetdi.
- parrandalar bosh soni 2020 yilning 1 oktabriga nisbatan 153,6 ming boshga (3,3 %) ko'paydi.
- parrandalar bosh sonining 87,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri keldi.



Fermer xo'jaliklari




Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha parrandalarning bosh soni, bosh



IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida Respublikaning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 5 543,8 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar kiritilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 100,6 % ni tashkil qildi, shundan xorijiy investitsiyalar 1823,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi



	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>	<i>umumiylajmiy hajmga nisbatan % da</i>
--	-------------------	--------------------------	--

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	5543,8	100,6	100,0
--	---------------	--------------	--------------

shu jumladan:


Markazlashgan investitsiyalar:	1732,7	107,3	31,3
budjet mablag‘lari	718,0	117,0	13,0
Suv ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	34,2	44,3	0,6
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	211,3	2,6 m.	3,8
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	769,2	91,1	13,9
Markazlashmagan investitsiyalar:	3811,1	97,8	68,7
korxonalarning o‘z mablag‘lari	1530,9	83,7	27,6
aholi mablag‘lari	675,4	111,5	12,2
to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	1054,0	98,4	19,0
tijorat bank kreditlari boshqa qarz mablag‘lari	550,8	142,7	9,9

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



**Markazlashmagan
moliyalashtirish manbalari
hisobidan investitsiyalar,
tarkibi % da**

**O‘tgan yilning mos
davriga nisbatan,
% da**



2021 yilning yanvar-sentabri oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	<i>jami</i>	<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
Jami, mldr. so‘m	5543,8	1498,5	4045,3
<i>shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan foiz ko‘rinishida</i>			
qurilish-montaj ishlari	3032,9	1410,5	1622,4
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari	2130,4	26,2	2104,2
Boshqa harajatlar	380,5	61,8	318,7

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining tuzilishi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish-montaj ishlaring ulushi 11,2 % li punktga kamayganligi, mashina, uskunalar, transport vositalarini ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari qiymati ulushi 12,6 % li punktga ko‘payganligi va boshqa harajatlarning ulushi 1,4 % li punktga kamayganligini ko‘rsatmoqda.

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 1732,7 mlrd. so'mlik investitsiya mablag'lari kiritilib, bu ko'rsatkich jami investitsiyalarning 31,3 % ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 107,3 % ni tashkil etgan. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 3811,1 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirildi (jamiga nisbatan ulushi 68,7 %) va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,8 % ni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga 1530,9 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalarning 27,6 % o'zlashtirildi. Aholining mablag'lari hisobidan 675,4 mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmining 12,2 % ni tashkil etdi.

Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida 769,2 mlrd. so'mlik xorijiy kreditlar ajratildi, bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,1 % ga kamaygan yoki jami investitsiyalarning ulushi 13,9 % ni tashkil etgan.


Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 550,8 mlrd. so'mlik mablag'lar kiritildi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiyligi hajmining 9,9 %), bu o'sish sur'ati 142,7 % ni tashkil etdi, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 1054,0 mlrd. so'm (ulushi 19,6 %) va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,4 % ni tashkil etdi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan 211,3 mlrd. so'm (ulushi 3,8 %) va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 martaga oshgan, Respublika budgeti 718,0 mlrd. so'm (ulushi 13,0 %) usish sur'ati 17,0 % ga kupaygan. Suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 34,2 mlrd. so'm, (ulushi 0,6 %) va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 44,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlar


Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyat turiga 1095,8 (19,8 %) mlrd. so'm, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashga 1084,6 (19,6 %) mlrd. so'm, shundan tabiiy gazni qazib olishga 1045,0 mlrd, so'm (18,8 %), ya'ni qayta ishslash sanoatiga 658,4 mlrd. so'm (11,9 %), shundan tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga 200,6 mlrd. so'm (3,6 %), oziq-ovqat maxsulotlari va ichimlik ishlab chiqarishga 156,1 mlrd. so'm (2,8 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishga 143,1 mlrd. so'm (2,6 %), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga 263,7 mlrd. so'm (4,8 %), suv ta'minoti kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga 178,3 mlrd. so'm (3,2 %), qurilishta 338,5 mlrd. so'm (6,1 %), tashish va saqlashga 451,7 mlrd. so'm (8,1 %), ulgurji va chakana savdoga 144,0 mlrd. so'm (2,6 %), axborot va aloqa 13,0 mlrd. so'm (0,2 %), professional ilmiy va texnik xizmat turlariga 196,1 mlrd. so'm (3,5 %), ta'limga 118,5 mlrd. so'm (2,1 %), davlat boshqaruvi va mudofaga 86,5 mlrd. so'm (1,6 %), yashash va ovqatlanish xizmati turlariga 11,4 mlrd. so'm (0,2 %), moliya va sug'urta faoliyatiga 10,6 mlrd. so'm (0,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar kursatishga 207,1 mlrd. so'm (3,1 %), san'at ko'ngil ochish va dam olishga 58,1 mlrd. so'm (1,0 %), turar-joy qurilishiga 573,3 mlrd. so'm (10,3 %) va boshqa faoliyat turlariga 13,2 mlrd. so'm (0,4 %) to'g'ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga
kiritilgan investitsiyalar va kreditlar
(umumiy hajmga nisbatan % da)**


■ 2020 yil yanvar-sentabr ■ 2021 yil yanvar-sentabr



**2021 yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarining
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi**



**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar,
(umumiy hajmga nisbatan % da)**



Jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 27,6 % korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan o‘zlashtirildi, shu bilan birga, To‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 19,0 %, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan, bu esa jami investitsiyalarning 13,9 % ni tashkil etadi.

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

	<i>Kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, %</i>	<i>Umumiy hajmdagi ulushi, %</i>
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	5543,8	100,6	100,0
Respublika budjeti	718,0	117,0	13,0
Suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	34,2	44,3	0,6
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	211,3	2,6 m.	3,8
O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan chet el kreditlari	769,2	91,1	13,9
Korxonalar mablag'lari	1530,9	83,7	27,6
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	550,8	142,7	9,9
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	1054,0	98,4	19,0
Aholi mablag'lari	675,4	111,5	12,2

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o'sish sur'atlari tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 211,3 mlrd. sum bo'lib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 2,6 martani tashkil etgan.

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m

	<i>2020 y. yanvar-sentabr</i>	<i>2021 y. yanvar-sentabr</i>	<i>o‘tgan yilning mos davriga o‘sish sur’ati, % da</i>	<i>jami investitsiyalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi, ming AQSh doll.</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5053,7	5543,8	100,6	11847,0
Nukus sh.	754,3	1446,6	176,4	98,2
tumanlar:				
Amudaryo	203,4	244,0	109,7	5800,0
Beruniy	235,4	263,4	102,4	-
Bo‘zatov	88,6	113,9	118,0	-
Qonliko‘l	68,2	68,9	91,3	291,9
Qorao‘zak	117,1	234,7	183,8	2,8
Kegeyli	66,0	82,6	113,8	458,6
Qo‘ng‘irot	773,4	520,5	61,8	4862,2
Mo‘ynoq	831,5	859,8	95,2	25,9
Nukus	117,2	116,9	90,7	26,4
Taxiatosh	497,3	266,6	49,1	7,8
Taxtako‘pir	82,6	54,7	59,8	-
To‘rtko‘l	459,8	526,9	105,2	7,9
Xo‘jayli	95,0	134,6	129,0	-
Chimboy	119,3	137,6	105,0	228,4
Shumanay	98,1	109,3	101,6	36,9
Ellikqal‘a	446,5	362,8	74,5	-

**Aholi jon boshiga kiritilgan investitsiyalar
(2021 yil yanvar-sentabr oylarida)**

	<i>Aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi, ming so'mda</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2870,1	99,4
Nukus sh.	4442,9	173,8
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1204,9	108,2
Beruniy	1347,2	100,8
Bo'zatov	5223,1	116,9
Qonliko'l	1328,2	90,1
Qorao'zak	4404,4	182,8
Kegeyli	1126,8	113,1
Qo'ng'irot	3945,9	61,2
Mo'ynoq	26375,7	93,4
Nukus	2279,6	89,2
Taxiatosh	3559,0	48,6
Taxtako'pir	1350,4	59,5
To'rtko'l	2408,1	103,6
Xo'jayli	1079,4	127,5
Chimboy	1212,1	104,2
Shumanay	1927,3	100,8
Ellikqal'a	2228,6	73,2

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Mo'ynoq tumani 26 375,7 ming so'm, bu yerda tabiiy gazni qazib olishga o'zlashtirilgan, Bo'zatov tumani 5 223,1 ming so'm, bu yerda sog'liqni saqlash, ta'lim va aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash iqtisodiy xizmat turlariga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq, Nukus shahri 4 442,9 ming so'm, bu yerda xalqaro ahamiyatdagi va ichki avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish ishlariga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

**2021 yilning yanvar-sentabr oylarida moliyalashtirish manbalari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m**

	<i>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar jami, mlrd. so‘m</i>	<i>shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i>				
		<i>respublika budgeti</i>	<i>korxonalar mablag‘lari</i>	<i>aholi mablag‘lari</i>	<i>xorijiy investitsiyalar va kreditlar</i>	<i>Xukumat kafolati ostidagi chet el kreditlari</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5543,8	718,0	1530,9	675,4	1054,0	769,2
Nukus sh.	1446,6	365,2	545,1	53,4	47,4	198,7
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	244,0	15,3	29,1	70,2	64,3	22,5
Beruniy	263,4	22,9	49,3	65,2	47,2	50,7
Bo‘zatov	113,9	60,3	3,2	7,5	5,3	-
Qonliko‘l	68,9	1,7	7,6	32,1	12,3	-
Qorao‘zak	234,7	14,9	70,1	18,3	91,6	-
